

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

**ОСНОВЫ ТЕОРИЯ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**FUNDAMENTALS THEORY OF DEVELOPMENT OF INFORMATION
COMPETENCE OF PRIMARY CLASS TEACHERS**

Mamayusupova Dilnoza Hayotovna

*Marg'ilon shahar 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash xususiyatlari ko'rsatilgan hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisining AKT kompetensiyasining zamonaviy ta'rifi berilgan.*

Аннотация: *В статье показаны особенности подготовки современных учителей начальных классов в области информационно-коммуникационных технологий и дано современное определение ИКТ-компетентности учителя начальных классов.*

Abstract: *The article shows the features of training modern primary school teachers in the field of information and communication technologies and gives a modern definition of ICT competence of a primary school teacher.*

Kalit so'zlar: *AKT-kompetensiyasi, kompyuter savodxonligi, axborot madaniyati, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.*

Ключевые слова: *ИКТ-компетентность, компьютерная грамотность, информационная культура, учитель начальных классов.*

Key words: *ICT competence, computer literacy, information culture, primary school teacher.*

Inson shaxsining barcha bilimlari rivoji darajasiga qator yangi talablarni ilgari suruvchi jamiyatni axborotlashirish ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Yaqindagina oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi katta hayotga juda sekin o'zgaruvchan holda qadam qo'yardi. Bugungi kunda axborot oqimining shiddatli o'sishi (jamiyatda axborot turlarining keskin o'sishi) sababli har bir yangi avlod asosiy bilimlarini talab etuvchi butunlay yangi vaziyatga duch kelmoqda. Ko'plab yetakchi olimlar (YE.V.Bondarsvskaya, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar) bilim-ma'rifatli ta'lim paradigmasiga asoslangan mavjud an'anaviy maktab modeli bugungi zamon talabiga javob bermasligini ta'kidlamoqdalar.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy faol, ijodiy tafakkurga ega shaxsni, bitiruvchilarda axborot oqimiga yo'naltirilgan malakalarni shakllantirishga, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mustaqil ta'lim, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Axborotlashtirish jarayonini tezlashuvi, tarmoq texnologiyalarini rivojlanishi va virtualizatsiya, ijtimoiy sharoitlarning so'nggi tuzilmasini shakllantiradi. Axborotlashtirish zamonaviy ta'lim muhitining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Ta'lim tizimida asosiy o'rinni boshlang'ich maktab egallaydi, uning tarkibida bolaning axborot muhitiga kiritish bazasi shakllanadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisini ta'lim va tarbiyaning zamonaviy usullarini o'zlashtira oladigan, ta'lim jarayonida texnik vositalardan samarali foydalana oladigan va o'z kasbiy kompetentligini uzluksiz takomillashtirib bora oladigan mutaxassis deb hisoblash mumkin. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarga axborot bilan ishlashning samarali yo'llarini ko'rsatish bo'lib, bu ularga o'z navbatida axborot ta'lim muhitida erkin harakatlantirish va murakkab ta'lim masalalarini yengillik bilan hal etish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining axborot kompetentligining eng muxim ko'rsatkichlaridan, ularning o'qitishning innovatsion shakl va usullaridan foydalanishga tayyorligi, zamonaviy multimediya vositalaridan optimal ravishda foydalanishi sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy faoliyatining asosiy xususiyatlariga, bolalarni ta'lim muhitiga moslashuvi jarayonida ishtirok etish, axborot jamiyati sharoitida o'qish va o'z-o'zini rivojlantirish xususiyatlarini takomillashtirish, maktabning axborot muhiti doirasida ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasini amalga oshirish kiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish yoshga xos xususiyatlari va o'qitishning o'ziga xos shakl va usullarini hisobga olishni talab qiladi.

Shaxsning axborot kompetentligi jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Axborotning eksponensial o'sishi jamiyatga ta'sir ko'rsatib, uni axborotlashuviga olib keladi. Axborotlashtirish asosida shaxsiy kompyuter, butun kutubxonalar mazmunini kompakt ko'rinishda saqlashga imkon beruvchi o'nlab va yuzlab gigabayt xajmdagi disklar, aloqaning optik tolali kanallari, aloqaning video matnli tizimlari, ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishniig metodlari, elektron pochta tizimlari va h.k. kabi fundamental kashfiyotlar yotadi.

Barcha texnika yuqori avtomatlashtirilgan axborot muhitini yaratishni ta'minlaydi va u nazariy jihatdan ixtiyoriy bilimga ixtiyoriy vaqtda, ixtiyoriy joyda kiritish imkonini beradi. Shunga ko'ra, o'qitish insonlarda ularga hayot kechirishning yangi axborot muhitida, jumladan o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitlarida ta'lim olish uchun hamda yangi yaxlit olamni tushunish va axborot dunyo qarashi uchun zarur bo'ladigan yangi kompetentliklarni shakllantirishni ta'minlashi kerak.

Amerikalik pedagog F.S.Shlextining ta'kidlashicha «maktab dasturining tayanch kursini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'quvchilar o'z bilimlarini tanish vaziyatlarda qo'llashga o'rganadilar, diplomga ega bo'ladilar, ammo axborot bilan mustaqil ishlash va bilim egallashni bilmaydilar, axborot jamiyatida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar». Shuning uchun zamonaviy umumiy ta'lim maqsadlaridagi asosiy ustunliklardan biri sifatida axborot kompetentligi hisoblanadi. N.A.Morozova o'zining ishida shaxs rivojlanishining turli yosh davrlarida turli asosiy kompetentliklarni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi (masalan, maktabgacha davrda – birinchi navbatda shaxsiy va kommunikativ; maktab davrida – umummadaniy, o'quv-bilish, axborot, kommunikativ; kasbiy tayyorgarlik davrida – qadriyatli-mazmunli, umummadaniy, ijtimoiy-mehnat, axborot, kommunikativ, siyosiy va ijtimoiy, ko'p madaniyatli jamiyatda yashash kompetentliklari, butun umr davomida ta'lim olish qobiliyati va istagini amalga oshiruvchi kompetentliklar). Ammo insonning butun hayoti davomida shakllantirish zarur bo'lgan qator kompetentliklar ham mavjuddir. Bunday kompetentliklarga axborot kompetentligi ham kiradi.

Axborot kompetentligi tushunchasi bugungi kunda aniq belgilangan va mustahkamlangan hisoblanmaydi. Mualliflar mazkur tushunchaning talqinida urg'uni turlicha qo'yadilar. Hozirgi vaqtda “axborot madaniyati” atamasi qo'llaniladigan qator ishlar mavjud bo'lib, bunda, bizning fikrimizcha, axborot kompetentligi to'g'risida gap boradi, ayrim tadqiqotlarda mualliflar “axborot kompetentligi” va “axborot madaniyati” atamalarini sinonimlar sifatida qo'llaydilar.

Tor ma'noda axborot madaniyati axborot bilan maqsadga muvofiq ishlash ko'nikmasi va uni olish, qayta ishlash va yetkazish uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni axborot ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan axborot faoliyatini amalga oshirish sifatida qaraladi. Mazkur holatda, bizning fikrimizcha, axborot kompetentligi to'g'risida aytish o'rinlidir.

S.D.Karakozov axborot kompetentligi quyidagilar bilan ifodalanadi deb hisoblaydi: “axborot jamiyati fuqarosining o'zi uchun sir hisoblanmagan axborotdan erkin foydalanishni ta'minlash imkoniyati, shuningdek uni quyidagilarni amalga oshira olishi:

- shaxsiy ma'lumotini senzuralanmagan ko'rinishda e'lon qilish;
- o'ziga axborot bilan ishlashning manbai, provayder, format, standart, dastur va texnologiyani erkin tanlash huquqini ta'minlash;
- u uchun ochiq bo'lgan barcha axborotlar, jumladan shaxsiy axborotlarini ishlab chiqarish, uzatish, tarqatish, foydalanish, nusxa ko'chirish, yo'q qilishga nisbatan jamiyatdagi mavjud imkoniyatlarni amalga oshirish”.

A.A.Derkach, kasbiy axborot kompetentligini o'rganib, u-o'zi ichiga quyidagilarni kiritishini ta'kidlaydi "kasbiy bilim, ko'nikmalar majmui, axborot texnologiyalari foydalanuvchilarining kasbiy muhim sifatleri:

- maxsus atamalar bilimlari, dasturlashtirish bilimlari, kompyuter grafikasi to'g'risidagi, EHM qurilmasi texnik sohasi to'g'risidagi bilimlar, mutaxassis – axborot texnologiyalari foydalanuvchisining andozaviy modeli to'g'risidagi bilimlar;

- kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish, materialga ishlov berish xajmi va tezligini oshirish, insonning hisoblash imkoniyatlarini, EHM bilan aloqa qilishning optimal dialogi krejimi usullarini keng aytishi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi;

- psixik jarayonlarning mavjudligi: "kompyuterli" fikrlash, bir dasturlashtirish tilidan boshqasiga o'tishni modellashtirish, tasavvur qilish, diqqatni, verbal xotirani taqsimlash shartlari sifatidagi formal strukturalar va ixchamlashtirilgan shakllardagi fikrlash;

- shaxs sifatlarining mavjudligi: axborot texnologiyalaridan foydalanishga motivatsion yo'nalganlik, kompyuterga ishonch, elektron muloqot odobiga rioya etishga ustanovka va boshqalar".

Axborot faoliyatidagi kompetentlik shuningdek axborot texnologiyalarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatida ifodalanadi (masalan, haqiqatdan yiroqlashish, kompyuterdan qo'rqish, muloqotning pasayishi, muloqot bo'yicha sherigining shaxsini hisobga olmaslik va uni xabarlar to'plamiga tenglashtirish hisobiga mehnatni noinson parvarlashtirish va boshqalar).

Ta'limni modernizatsiyalash mazmunida bo'lajak o'qituvchi ish tayyorlash sifatining integral ko'rsatkichi sifatida kasbiy kompetentlikni tushunish kerak bo'lib, u muayyan bilimlar va ko'nikmalar majmui orqali belgilanmaydigan, balki insonning aniq bir vaziyatda egallangan bilimlar va tajribalarini amalga oshirish ko'nikmalarini ifodalaydi. O'qituvchining kasbiy mahorati o'z ichiga turli kompetentliklarni, jumladan axborot kompetentligini kiritadi.

Zamonaviy sharoitlarda o'qituvchining axborot kompetentligi uning umuman kasbiy pedagogik kompetentligini belgilashi ma'lumdir.

YE.I.Trofimova, o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'rganib, pedagogika mutaxassisligidagi bitiruvchiga talablar ro'yxatini quyidagi tashkil etuvchilarni kirituvchi axborot ko'nikmalari bilan to'ldirish zarur deb hisoblaydi:

- fanga oid – kompyuterning ishlash prinsiplarini, informatikaning asosiy tushunchalari va axborotga ishlov berish usullarini bilish;

- foydalanuvchilik — dasturiy ta'minotning asosiy ko'rinishlari bilan ishlash;

- baholash – axborot muhitining turli manbalaridan axborotlarning ishonchliligini baholash;

- pedagogik — axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish.

Shu tariqa, o'qituvchining axborot kompetentligi uning kasbiy kompetentligining zaruriy tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Turli mualliflar o'qituvchining axborot kompetentligiga informatika asoslari sohasidagi bilimlar va ko'nikmalar; ta'lim sohasidagi xujjatlarning asosiy turlari va nashr ko'rinishlarini bilish; axborotni analitik- sintetik qayta ishlashning formal metodlarini egallaganlik; kasbiy axborot ehtiyojlariga mos ravishda axborot izlash usullarini egallaganlik; axborotni interpretatsiyalash hamda ta'lim va tarbiya vazifalariga moslashtirish ko'nikmalari; o'quv axborotini bayon etish ko'nikmalari; yangi axborot texnologiyalari va Internet tarmog'idan foydalanib axborotni to'plash, qayta ishlash, izlash, saqlash va taqdim etish bilan bog'liq ko'nikmalar; o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun unda yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari kabi tashkil etuvchilarni kiritadilar.

Kompetentlikning tabiati shundayki, u faqatgina insonning qadriyatlarini bilan uyg'un birlikda, ya'ni mazkur faoliyat turidan chuqur shaxsiy manfaatdorlik sharoitida namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun axborot kompetentligining kognitiv (bilimlar) va operatsional-texnologik (ko'nikmalar, tajriba) komponentlaridan tashqari individ axborot faoliyatini sifatli amalga oshirishga ichki motivatsiyaning mavjudligini, mazkur faoliyatga qadriyat sifatidagi munosabatning mavjudligini ko'zda tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.Parpiyev. A.Maraximov, R.Xamdamov. U.Begimkulov. M.Bekmuradov. N.Taylokov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari UzME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008. 196 b.
2. Маркова А.К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя // Советская педагогика, 1990, № 8, с. 82-88.
3. Abdukodirov A.A., Pardayyev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan, 2009, - 145 b.